ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Xoudag bentoniti asosida yangi turdagi innovatsion o'g'it ishlab chiqarish texnologiyasi.
A new type of innovative fertilizer production technology based on Khoudag bentonite.

Hamidov A.P [1], Ro'zmamatova M.U [2].

[1]Termiz dalat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, [2]Termiz shahar politexnikumi.

azimhamidov75c833ma@gmail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan Guliob fosoforiti tarkibi fizik-kimyoviy tahlil asosida o'rganilgan. Undagi P_2O_5 umumiy miqdori 4,13 dan 22,30 % gachani tashkil etishi laboratoriya sharoitida fotokolorometrik, rentgenometrik va ionometrik usullar yordamida aniqlanib tahlil qilindi. Uning tarkibida talab darajasida P_2O_5 mavjud bo'lmasa xam ularni turli xil tarkibida mineral moddalar mavjud bo'lgan xomashyolar bilan modifikatsiyalab, yangi aralash turdagi o'g'it olish mumkin.

Аннотация

В данной статье на основе физико-химического анализа изучен состав Гулябского фосфорита, расположенного в Сариосийском районе Сурхандарьинской области. Общее количество P_2O_5 в нем составляет от 4,13 до 22,30 % и определялось и анализировалось в лабораторных условиях фотоколоометрическими, радиометрическими и ионометрическими методами. Даже если они не содержат P_2O_5 на необходимом уровне, их можно модифицировать сырьем, содержащим различные минеральные вещества, для получения нового смешанного типа удобрений.

Abstract

In this article, the composition of Guliob phosphorite located in Sariosia district of Surkhandarya region is studied based on physical and chemical analysis. The total amount of P_2O_5 in it is from 4.13 to 22.30% and was determined and analyzed in laboratory conditions using photocolorometric, radiometric and ionometric methods. Even if it does not contain P_2O_5 at the required level, it is possible to modify them with raw materials containing various mineral substances to obtain a new mixed type of fertilizer.

Kalit so'zlar: Fosfor, guliob, tahlil, Qizilqum fosforiti, element analiz, laboratoriya, fotokolorometrik, rentgenometrik, ionometrik, piklar, yutilish chizig'i.

Ключевые слова: Фосфор, гулиоб, анализ, Кызылкумский фосфорит, элементный анализ, лабораторный, фотоколорометрический, радиометрический, ионометрический, пики, линия поглощения.

Keywords: Phosphorus, guliob, analysis, Kyzylkum phosphorite, elemental analysis, laboratory, photocolorometric, radiometric, ionometric, peaks, absorption line.

Tabiiy fosfarit rudalari tibbiyot, farmatsevtika, metallurgiya, harbiy ishlar, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda keng qo'llaniladigan fosfor va uning hosilalarini olish uchun zarur bo'lgan tog'-kimyoviy xom ashyosining eng muhim turi hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda tabiiy fosfarit rudalaridan eng ko'p foydalanilayotgan soha bu qishloq xo'jaligi bo'lib qolmoqda. Buning eng

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

asosiy sabablaridan esa tabiiy fosfaritlar tarkibidagi fosfor elementi tuproq unumdorligini oshirishda va qishloq xo‘jaligi ekinlarining sifati hamda hosildorligini oshirishda eng muhim ozuqa elementi sanaladi. Bundan tashqari bugungi kunda parrandachilik va baliqchilik sohasida yuqqori mahsuldorlikka erishish uchun ham ozuqaviy fosforli qo‘shimchalar ishlatish zarur ahamiyat kasb etmoqda. O‘zlashuvchan fosfor ozuqa elementisiz intensiv yuqori mahsuldor dehqonchilik va chorvachilikni tasavvur qilish qiyin. Ularni ishlab chiqarishga qazib olingan tabiiy fosfarit rudasining atigi 5-7% ga yaqini sarflanadi.

Tabiiy fosfarit rudalarining zahiralari 60 dan ortiq mamlakatlarda 63067,4 mln. tonna P_2O_5 aniqlangan shundan 57 807,4 mln. tonnasini fosforit hamda 5260 mln. tonnasini apatit rudalari tashkil etadi. Marakosh, AQSH, Xitoy, Rossiya va Qozog‘iston davlatlarida 49493 mln. tonna P_2O_5 mavjud bo‘lib, bu dunyo zahiralarining deyarli 80% ga teng ko‘rsatgichdir.

Respublikamizda fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun o‘zining tabiiy fosforitlar zahiralariga ega. Tabiiy fosforit konlari Navoiy, Farg‘ona, Surxondaryo, Toshkent, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud. Ammo, ushbu mavjud bo‘lgan tabiiy fosforit rudalaridan o‘g‘it ishlab chiqarish nuqtai nazaridan eng istiqbolli fosforit koni bu Markaziy Qizilqum hududida joylashgan.

Qizilqum tabiiy fosforit koni havzasi taxminan 65 ming km^2 maydonni egallaydi. Agar sanoat uchun tabiiy fosforit rudalari ushbu maydonning atigi 5% ni egallaydi deb faraz qilsak, ular qatlamlarining o‘rtacha umumiy qalinligi 2,5 m bo‘lgan tabiiy fosforit rudalarining taxminiy zahiralari 16,25 mlrd. tonnani yoki 1,95 mlrd. tonna P_2O_5 ni (o‘rtacha P_2O_5 miqdori 12% olinganda) tashkil etadi.

Surxandaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan Guliob past navli tabiiy fosforit mineralining o‘rganilgan konturlari 30 km uzunlikka va 60 m chuqurlikka cho‘zilgan. Uning tarkibi asosan dallit va diadoxit minerallaridan iborat. Guliob past navli tabiiy fosforit rudasida ushbu minerallarning umumiy miqdori 31% ni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan tabiiy fosforit mineral rudalari turlariga ko‘ra Guliob fosforiti donador granulali turiga kiradi.

Guliob tabiiy fosforit konining miqdori 551 ming tonna P_2O_5 ni tashkil qiladi. Bu granulali fosforli minerallarning rangi qora va jigar rangdir. Undagi P_2O_5 umumiy miqdori 4,13 dan 22,30 % gachani tashkil etadi.

Bentonit – tabiiy gil minerali bo‘lib, qishloq xo‘jaligida turli maqsadlar uchun keng qo‘llaniladi. Quyida bentonitning qishloq xo'jaligida ishlatilishining asosiy yo‘nalishlari keltirilgan:

O‘g‘it sifatida: Bentonit tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash uchun ishlatiladi. U tuproqning suv tutish qobiliyatini oshirib, eroziyaga qarshi turish xususiyatini kuchaytiradi. Bundan tashqari, bentonit o‘g‘itlarning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi va ularning uzoq muddat ta'sirini oshiradi.

O‘g‘itlarning samaradorligini oshirishda bentonitning roli katta. U o‘g‘itlar bilan aralashtirib ishlatilganda, ozuqa moddalarining tuproqdagi tarqalishini tartibga soladi va ularning o‘zlashtirilishini oshiradi. Bentonitning bu xususiyati natijasida o‘g‘itlar sekin-asta erib, ekinlar uchun uzoq muddatli ozuqa manbai sifatida xizmat qiladi. Bu ayniqsa, mineral va organik o‘g‘itlar uchun foydalidir. Bentonit qishloq xo‘jaligida chorvachilik va parrandachilik sohasida ham keng qo‘llaniladi. U hayvonlarning hazm qilish tizimini yaxshilashga yordam beradigan tabiiy ozuqa qo‘shimchasi sifatida ishlatiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-3

Qishloq xo‘jaligida irrigatsiya tizimlarida bentonit suv tozalash maqsadida ishlatilishi mumkin. Uning yutilish qobiliyati ifloslantiruvchi moddalarni o‘ziga tortib, suvni toza saqlashga yordam beradi. Bentonit suvdagi og‘ir metallar, zaharli moddalar va boshqa zararli kimyoviy birikmalarni filtratsiya qilib, sug‘orilayotgan ekinlarga zararsiz suv yetkazib beradi.

Urug‘lar, o‘g‘itlar va pestitsidlarni saqlash yoki tashishda bentonit qoplama materiali sifatida ishlatiladi. Bentonit bilan qoplangan materiallar namlikdan va tashqi ta'sirlardan yaxshi himoyalangan bo‘ladi. Bu esa ularning sifati va samaradorligini uzoq muddat davomida saqlashga yordam beradi.

Bentonit namunasining kimyoviy tarkibi

1-jadvalda

Bentonitning kimyoviy tarkibi	Xovdak bentoniti, %		Sherobod bentoniti, %	
	Boyitilgunga qadar	Boyitilgandan keyingi	Boyitilgunga qadar	Boyitilgandan keyingi
SiO_2	61,2	55,3	54,91	38,02
Al_2O_3	16,3	21,2	14,6	30,5
CaO	3,6	3,8	1,6	1,8
Fe_2O_3	2,8	2,3	6,6	6,2
Na_2O	2,4	2,2	1,9	1,7
MgO	3,6	3,8	1,6	1,8
MnO	0,7	0,8	0,4	0,8
K_2O	2,6	2,3	1,65	1,4
P_2O_5	0,3	0,5	0,56	0,68
CO_2	0,12	0,10	0,18	0,25
p.p.p.	6,38	7,7	16	16,85


Ushbu 1-jadvalda ko’rinib turibdiki, Xovdak bentonitini miqdorni kamaytirish usuli bilan boyitgandan keyin SiO_2 miqdori 61,2% dan 55,3% gacha, Sherobod bentoniti esa 54,91% dan 38,02% gacha pasaygan. Bundan tashqari, Xovdak bentoniti boyitilgandan keyin Al_2O_3 miqdori 16,3% dan 21,2% gacha oshgan. Shu bilan birga, har ikkala namunadagi rang beruvchi oksidlarning (Fe_2O_3, MgO va boshqalar) miqdori taxminan 2 marta kamaydi. Al_2O_3 va Fe_2O_3 miqdori bo'yicha Sherobod konidagi boyitilgan bentonit Xovdak konidagi boyitilgan bentonitdan ustun turadi. Bu hosil bo'lgan adsorbentlarning sifatiga foydali ta'sir ko'rsatadi va bentonitlarni faollashtirishdan oldin boyitish jarayoniga alohida ehtiyoj borligini yana bir bor tasdiqlaydi

Bentonit namunalari Nicolet iS50 Fisher Scientific qayta o’zgartirgichli IQ- spektrometri yordamida o'rganildi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3



1-rasm. Xovdak bentonit namunasining diffraktogrammasi

Spektral testlar uchun namunalar kukun shaklida va tabletka shaklida tayyorlangan. Namunalar 9 soatdan ko'proq vaqt davomida quritish pechida 105°C haroratda dastlabki quritishdan o'tkazildi. Bentonitning energiya dispersiv spektrida (kamayish tartibida) quyidagi kimyoviy elementlar qayd etilgan: kislorod, kremniy, alyuminiy, temir, kaliy, natriy va boshqalar mavjud.

Xulosa

Bentonit qishloq xo‘jaligida ko‘p funksiyali, tabiiy va ekologik xavfsiz modda sifatida o‘z o‘rniga ega. Tuproqni yaxshilashdan tortib, hayvonlar uchun sog‘lom ozuqa qo‘shimchasi sifatida foydalanishgacha, bentonitning imkoniyatlari keng. Bu mineralning qishloq xo‘jaligida ishlatilishi tuproq unumdorligini oshiradi, ekinlarning barqaror o‘sishini ta’minlaydi va chorvachilikda yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Shu sababli, bentonitni qishloq xo‘jaligi sohasida innovatsion vosita sifatida ko‘rib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshqurbonov F.B., Raximov A.X., Boboqulova Sh.M., Abduraxmonov F.R. Xovdak bentoniti asosida ionalmashinuvchi kompozitsion materiallarni o’simlik yog’ini oqartirishda qo’llash // Научный вестник СамГУ, г. Самарканд. -2022. -№ 5 (135) -с. 33-36.

2. Eshkurbonov F.B., Hamidov A.P., Qarshiyev N.X. The effect of the innovative fertilizer "Agrobentofos" on the agrochemical properties of saline soils in certain areas of Nukus district // Science and Education in Karakalpakstan *ISSN 2181-9203 №4/2 (45) 2024.*

3. Eshqurbonov F. B., Hamidov A. P. Xovdag bentonitining sanoatdagi ahamiyati va fizik-kimyoviy tahlili //*Scientific Journal Of Mechanics And Technology, ISSN 2181- 15X, Volume 5, Issue 2, Special Issue 2024.*

4.Xodjamqulov S.Z Hamidov.A.P. Tursunov S.A· Mahalliy fosfaritlar asosida olingan ekstraktsion fosfat kislotasini bug’latish yo’li orqali konsentrlash.// Journal of Universal Science Research (JUSR) Vol. 1 No. 2 (2023)